



**O'G'IL BOLALARNI OILAVIY MUNOSABATLARGA TAYYORLASHDA
QADRIYATLI MUNOSABATLARNING AHAMIYATI**

**THE IMPORTANCE OF VALUABLE RELATIONSHIPS IN PREPARING BOYS
FOR FAMILY INTERACTIONS**

**ВАЖНОСТЬ ЦЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ В ПОДГОТОВКЕ МАЛЬЧИКОВ К
СЕМЕЙНОМУ ВЗАИМОДЕЙСТВИЮ**

Raxmatillayeva Sug'diyona Mahammadjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi 1-kurs magistranti

sugdiyonaraxmatulayeva@gmail.com

+998501082338

Annotatsiya: Oilaviy qadriyatlarning shaxsiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishdagi roli, o'g'il bolalarni tarbiyalash jarayonida shakllanadigan hurmat, mehr-oqibat, mas'uliyat va o'zaro ishonch kabi asosiy tamoyillar tahlil qilinadi. Tadqiqotda ota-onaning tarbiyadagi roli, oiladagi gender rollari, pedagogik va psixologik yondashuvlar, shuningdek, madaniy va global kontekstlarning bolalarning hissiy-intellektual rivojlanishiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Ish natijalari shuni ko'rsatadiki, oilaviy qadriyatlar tizimi bolaning hozirgi xulq-atvorini belgilash bilan birga, uning kelajakdagi oilaviy va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi. Mustahkam oilaviy muhitda tarbiyalangan o'g'il bolalar jamiyatda mas'uliyatli, hurmatli va hissiy barqaror shaxs sifatida rivojlanadi. Shu bois, ilmiy asoslangan tarbiya metodlarini ishlab chiqish va milliy qadriyatlarni yosh avlodga etkazish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: O'g'il bolalar, tarbiya, hurmat, mehr-oqibat, mas'uliyat, ijtimoiy rivojlanish, hissiy-intellektual rivojlanish, gender rollari, pedagogik yondashuv, milliy qadriyatlar.

Abstract: The study analyzes the role of family values in personal, social, and psychological development, as well as the key principles formed in the upbringing of boys, such as respect, compassion, responsibility, and mutual trust. The research examines the role of parents in education, gender roles within the family, pedagogical and psychological approaches, as well as the influence of cultural and global contexts on children's emotional and intellectual development. The results indicate that the system of family values not only shapes a child's current behavior but also contributes to the formation of future family and social relationships. Boys raised in a strong family environment develop as responsible, respectful, and emotionally stable individuals in society. Therefore, developing scientifically grounded educational methods and transmitting national values to the younger generation is of great importance.



Keywords: *boys, upbringing, respect, compassion, responsibility, social development, emotional-intellectual development, gender roles, pedagogical approach, national values*

Аннотация: *В исследовании анализируется роль семейных ценностей в личностном, социальном и психологическом развитии, а также ключевые принципы, формируемые при воспитании мальчиков, такие как уважение, сострадание, ответственность и взаимное доверие. Рассматривается роль родителей в воспитании, гендерные роли в семье, педагогические и психологические подходы, а также влияние культурного и глобального контекстов на эмоциональное и интеллектуальное развитие детей. Результаты показывают, что система семейных ценностей не только формирует текущее поведение ребёнка, но и способствует развитию будущих семейных и социальных отношений. Мальчики, воспитанные в крепкой семье, развиваются как ответственные, уважительные и эмоционально устойчивые личности. Поэтому разработка научно обоснованных методов воспитания и передача национальных ценностей молодому поколению имеет большое значение.*

Ключевые слова: *мальчики, воспитание, уважение, сострадание, ответственность, социальное развитие, эмоционально-интеллектуальное развитие, гендерные роли, педагогический подход, национальные ценности*

Jamiyatimizda oilaviy munosabatlar inson hayotida muhim o'rin egallaydi. Oilaviy qadriyatlar har bir shaxsning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi. Ayniqsa, o'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida qadriyatlar orqali tarbiya berish katta ahamiyatga ega. Qadriyatlar hurmat, mehr-oqibat, mas'uliyat va o'zaro ishonch kabi tamoyillarni o'z ichiga oladi, shuningdek, yosh avlodning kelajakdagi munosabatlari, oilaviy hayotdagi roli va jamiyatdagi o'rnini shakllantirishga yordam beradi. Mamlakatimizda har bir oilaning huquq va manfaatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ta'lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish davlat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. 2018-yil 19-20-yanvar kunlari Surxondaryoda bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishidagi davlat rahbari - Prezidentimiz Shavkat Miromonovichning: "Eng katta baxt, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi" degan so'zlari ham oilaning ahamiyati va qadriyatlarning dolzarbligini ko'rsatadi. Oila - bu muhabbat va hurmatga asoslangan, ishon va qonunlarga ega bo'lgan kichik davlatdir. Mustahkam va birlashgan oilada o'z oilaviy qadriyatlari mavjud bo'lib, ular jamiyatning barqarorligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Oila va oilaviy qadriyatlar har bir inson hayotining asosi hisoblanadi. Aynan oilada shaxsiy rivojlanish boshlanadi, chunki qadriyatlar yosh avlodga yaxlit tabiatning uyg'un rivojlanishi uchun zarur ko'nikmalarni singdiradi. Oila va qadriyatlar bir-biriga chambarchas bog'langan bo'lib, alohida mavjud bo'la olmaydi. Agar oila bo'lmasa, oilaviy qadriyatlarning ahamiyati ham kamayadi.

Oilaviy qadriyatlar bolalarning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatga moslashuvi uchun juda muhimdir. Oilada o'rganilgan hurmat, mehr-muruvvat, o'zaro ishonch va mas'uliyat



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



tuyg'usi bolalarning ijtimoiy munosabatlari, hissiy barqarorligi va xulq-atvorini shakllantiradi (Xamrayeva, 2024). O'g'il bolalar oilaviy muhitda nafaqat kuzatuvchi sifatida, balki faol ishtirokchi sifatida tarbiyalanadi: ota-onaning hissiy qo'llab-quvvatlashi konfliktlarni hal qilish va boshqalar bilan munosabat o'rnatish ko'nikmalarini mustahkamlaydi (Chu, 2020). Oila muhitida bolalar gender tushunchasiga oid dastlabki tasavvurlarni onalar, otalar va kattalar orqali qabul qiladi. Bu jarayonda o'g'il bolalar, ayniqsa, jamiyatdagi erkaklar rolini boshlang'ich bosqichda o'z oilalaridan o'rganadi. Ular oilada erkaklarning ustun mavqei, mas'uliyat va kuch bilan bog'liq rollarni kuzatish orqali "erkaklik" haqidagi stereotipik tushunchalarni qabul qiladilar. Keyinchalik voyaga yetganlarida, bu qabul qilingan rollarda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni ham ichki dunyolarida anglab yetishadi. Bu holat jamiyatda gender rollarining yana-da mustahkamlanishi yoki qayta shakllanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, "Boys and Men in African American Families" ("Afrikalik Amerikalik Oilalardagi O'g'il Bolalar va Erkaklar") kabi ilmiy manbalar o'g'il bolalar va erkaklarning oilada qanday rol o'ynashi, ularning oilaviy muhitdagi ijtimoiy tajribasi va hayot yo'lining shakllanishi bilan bog'liq empirik tahlillarni beradi. Bu kitobda o'g'il bolalarning oiladagi gender dinamikasi, ruhiy moslashuv va ijtimoiy qadriyatlar tizimi tahlil qilinadi va ularning oila ichidagi munosabatlari va rollari bolalarning keyingi hayotdagi ijtimoiy adaptatsiyasiga bevosita ta'sir qilishi tasdiqlanadi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar psixologiyasining rivojlanish bosqichlarida oilaviy kommunikatsiyalar ularning emotsional, intellektual va ijtimoiy o'sish jarayonlarini qo'llab-quvvatlaydi, ota-onalar va pedagoglarning samarali muloqoti bolaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Pedagogik va psixologik yondashuvlar o'g'il bolalarni tarbiyalashda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar xatti-harakatlarini faqat "erkakona" yoki "ayolona" deb chegara ichiga solish, ularning hissiy jihatlarini cheklab qo'yadi va salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin (Fabes & Martin, 1991). Masalan, pedagogik yondashuvlar orqali bolalarga o'z hissiyotlarini ifodalash, boshqalar bilan hamdard bo'lish, muammolarni hal etish va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini o'rgatish mumkin. Bolalar pedagoglar va ota-onalar tomonidan qo'llab-quvvatlanganda, ularning hissiy-intellektual rivojlanishi yaxshilanadi va ijtimoiy ko'nikmalar mustahkamlanadi (Shukurova, 2024).

Psixologik tadqiqotlar esa, gender stereotiplari bolaning o'zini anglashiga bevosita ta'sir qiladi. "O'g'illar shunday bo'ladi" va "qizlar muloyim bo'ladi" kabi iboralar yoshdan boshlab bolada qattiq gender rollarni mustahkamlaydi va ularning hissiy erkinligini cheklaydi. Bunday stereotiplar bolaning o'z imkoniyatlari va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini pasaytiradi hamda ularni cheklangan rollarga yo'naltiradi. Misol uchun, global tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar 10 yoshga yetganda gender stereotiplari allaqachon ularning aql-idrokida mustahkam joy olgan bo'ladi, bu esa keyinchalik intellektual va hissiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, pedagogik tadqiqotlar o'g'il bolalar va qiz bolalarning o'rganish uslublari va hissiy ko'rsatkichlari farqliligini ta'kidlaydi. Bu farqlar bolalarning nerv tizimi funksional xususiyatlari, hissiy javob qaytarish usullari,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



bilish va ijtimoiy ko'nikmalar bilan bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonini optimallashtirishda e'tiborga olinishi lozim. Bu esa o'g'il bolalarni tarbiyalashda individual yondashuvni kuchaytirishni talab qiladi.

O'g'il bolalar tarbiyasida jamiyat va madaniy kontekstning o'рни ham muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy urf-odatlar bolalarning xulq-atvorini va hissiy ifodalarini shakllantirishga ta'sir qiladi. Masalan, ba'zi madaniyatlarda o'g'illarni ijtimoiy yetakchilik va mustaqillikka rag'batlantirish ustun bo'lsa, boshqalarida hissiy ochiqlik va interaktivlik kabi fazilatlar ham ahamiyatli hisoblanadi. Shu sababli, pedagogik yondashuvlar va oilaviy ta'lim tizimlarida madaniy kontekstni hisobga olish, stereotipik yondashuvlardan qochish, bolalarning turli jihatlarini qo'llab-quvvatlash tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshiradi. Hissiy rivojlanish ham o'g'il bolalarning ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bolalar hissiy holatlari yaxshi bo'lsa, ular ta'lim jarayoni da ijtimoiy moslashuvchanlikka, muloqotga, ijodiy fikrlashga va muammolarni hal etish qobiliyatiga ega bo'lishadi. Shu sababli hissiy-intellektual rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi yondashuvlar bolaning ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyati uchun zarurdir. Umuman olganda, zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'g'il bolalarni tarbiyalashda oilaviy qadriyatlar, hissiy va ijtimoiy rivojlanish, gender stereotiplaridan xoli yondashuvlar hamda madaniy kontekstning ijobiy ta'siri birgalikda muhim ahamiyatga ega. Bu uyg'unlik bolalarga nafaqat shaxsiy kuch-quvvat beradi, balki jamiyatda sog'lom va barqaror munosabatlar shakllanishiga ham yordam beradi.

O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda qadriyatli munosabatlar shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va psixologik tayyorgarligini shakllantiruvchi eng muhim omil hisoblanadi. Oilaviy qadriyatlar tizimi — hurmat, mas'uliyat, mehr-oqibat, halollik, anglashuv va milliy urf-odatlar orqali bolalarda shaxsiy va jamiyat hayotida ijobiy xulq-atvor normativlarini mustahkamlaydi. Oilada o'g'il bolalar avvalo ota-ona orasidagi sog'lom muloqot va o'zaro hurmat namunalarini o'zlashtirib, kelajakda o'z oilasida samarali munosabatlar o'rnatish qobiliyatiga ega bo'ladi.

O'zbek oilasi uchun qadriyatlar ko'pincha milliy an'analar, diniy e'tiqodlar va jamiyatning tarixiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, farzandlar tarbiyasida o'zini anglash, vatanparvarlik va jamiyatga foydali bo'lish kabi asosiy tamoyillarni shakllantiradi. Shu bois, oilaviy qadriyatlar orqali o'g'il bolalar nafaqat oilaviy rolni bajarishga, balki jamiyatdagi o'z o'rnini anglashga ham tayyorlanadi. Oilaning tarbiyaviy roli nafaqat bolaning hozirgi xulq-atvorini belgilaydi, balki uning kelajakda o'z oilaviy munosabatlarini qanday qurishini ham belgilovchi asosiy determinantdir. Ota-onalar, xususan otaning roli bolaning oilaviy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonida juda katta hisoblanadi. Otalar oilaviy qadriyatlarni namoyon etib, bolalarga sog'lom munosabat modeli yaratadilar, bu esa ularning kelajakdagi ijtimoiy hayotida o'zaro hurmat, mehr qo'yish va mas'uliyatni rivojlantiradi (Kharchenko, 2024).

Bugungi global o'zgarishlar, texnologik ta'sirlar va ijtimoiy medialarning tarqalishi natijasida bolalar yoshligidan tashqaridan keladigan noto'g'ri qadriyatlarni o'zlashtirish



xavfi ortmoqda. Shu sababli oilaviy qadriyatlar va ularni ongsiz ta'sirlardan himoya qilish majburiy vazifaga aylanmoqda. Oilaviy muhitda mustahkam hurmat va ishonch qadriyatlari rivojlangan o'g'il bolalar jamiyatda ijobiy, sog'lom va barqaror oilaviy munosabatlarni qurishga qodir bo'ladi. Shu sababli ilmiy asoslangan tarbiya metodlarini ishlab chiqish, ota-onalarni bolalarni qadriyatli munosabatlarga tayyorlash bo'yicha qo'llab-quvvatlash, hamda milliy qadriyatlarni yosh avlodga etkazishda zamonaviy tadqiqotlarni inobatga olish zarur. Oilaviy qadriyatlar tizimini saqlab qolish va mustahkamlash - kelajak avlodni ijtimoiy, psixologik va ma'naviy tayyor holda shakllantirishning asosiy yo'li hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Chu, J. Y. (2020). Boys' Nature, Boys' Culture, and a Crisis of Connection. In The Crisis of Connection: Its Roots, Consequences, and Solutions (pp.88–105). New York University Press.
- 2.Fabes, R. A., & Martin, C. L. (1991). Gender and the development of emotion regulation. *Developmental Psychology*, 27(2), 283–289.
- 3.Leaper, C. (2002). Parenting boys and girls. In M. Bornstein (Ed.), *Handbook of Parenting* (Vol. 1, 2nd ed., pp. 189–225). Lawrence Erlbaum Associates.
- 4.Xamrayeva, Z. (2024). OILADA BOLALARNI TARBIYALASH VA OILAVIY QADRIYATLAR. FarDU ilmiy xabarlar.
- 5.Way, N. (2011). *Deep Secrets: Boys' Friendships and the Crisis of Connection*. Harvard University Press.
- 6.Ortiqova, Z. N. (2024). OILADA BOLALARNI MILLIY QADRIYATLAR VA AN'ANALAR ASOSIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK OMILLARI. FarDU ilmiy xabarlar.
- 7.Social Psychology of Education. (2025). Boys and girls can play. Springer.
- 8.Shukurova, D. (2024). Psixologik yondashuvlar va bolaning hissiy rivojlanishi. Ilmiy jurnal "Psixologiya va ta'lim".
- 9.Muxlisova, S. S., Oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o'rni. Cyberleninka.
- 10.Ismoilov S. D. Oilada bolalarni milliy qadriyat va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari. Fergana Method.
- 11.Mehriniso Xolpo'latova. Oilada bolalar bilan muloqotni yo'lga qo'yishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari. Scientific Journal.
- 12.Go'zal S. Yunusova. Influence of family relationships on the formation of social behavior of adolescents. Interon Conference Proceedings.
- 13.Time. (2018). Gender stereotypes in childhood development. <https://time.com/4948607/gender-stereotypes-roles/>
- 14.Nature. (2023). The influence of culture on child emotional and social development. <https://www.nature.com/articles/s41598-023-39947-0>



15.Incop. (2024). Supporting boys' emotional and social growth in education.
<https://incop.org/index.php/met/article/view/318>